



**SOVET DAVRIDA QORAQALPOG‘ISTONDA DINIY NAZORAT VA QATAG‘ONLAR  
(1920-1930-YILLAR)**

*Aminov Rahmatjon Iskandar o‘g‘li*

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada 1920–1930-yillarda Sovet hokimiyati tomonidan Qoraqalpog‘istonda olib borilgan diniy nazorat va qatag‘on siyosatining tizimli jarayonlari tahsil qilinadi. Dastlabki “ma’rifat” va “antireligiyoz kampaniya” shiorlari ostidagi choralardan boshlab, bu siyosat 1930-yillarga kelib to‘liq qatag‘onga aylanganligi, diniy institutlar yo‘q qilinishi, ruhoniylarning quvg‘in va qirg‘in qilinishi, an’anaviy marosimlarning taqiqlanishi va butun ma’naviy makonning buzilishi holatlari ilmiy manbalar asosida o‘rganiladi. Markazdan qabul qilingan qat’iy direktivalar mahalliy madaniy va ijtimoiy realitetda qanday amalga oshirilgani ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotning magsadi bu qora sahifani tarixiy kontekstda joylashtirib, uning Qoraqalpog‘iston jamiyatining diniy o‘ziga xosligi va ijtimoiy xotirasiga qo‘ygan chuqur ta’sirini aniq ifodalashdir.

**Kalit so‘zlar:** Sovet davri, Qoraqalpog‘iston, diniy siyosat, diniy qatag‘on, ruhoniylar, madrasa va masjidlar, an’anaviy marosimlar, ma’naviyat, kollektivlashtirish, madaniy meros, ideologik nazorat.

**RELIGIOUS CONTROL AND REPRESSIONS IN KARAKALPAKSTAN DURING THE  
SOVIET PERIOD (1920s–1930s)**

*Aminov Rahmatjon Iskandar o‘g‘li*

*Nukus Branch of the Uzbekistan State University of Physical Education and Sport*

**ABSTRACT**

This article examines the systematic processes of religious control and repression carried out by the Soviet authorities in Karakalpakstan during the 1920s–1930s. Beginning with measures implemented under the slogans of “enlightenment” and “anti-religious campaigns,” these policies gradually developed into full-scale repression by the 1930s. The study analyzes the destruction of religious institutions, the persecution and execution of religious leaders, the prohibition of traditional rituals, and the disruption of the entire spiritual sphere of society, drawing on various scholarly sources. It also demonstrates how strict directives issued by the central authorities were implemented within the local cultural and social context. The aim of this research is to place this dark chapter within its historical framework and to clearly demonstrate its profound impact on the religious identity and social memory of Karakalpakstan society.

**Keywords:** Soviet period, Karakalpakstan, religious policy, religious repression, clergy, madrasas and mosques, traditional rituals, spirituality, collectivization, cultural heritage, ideological control.

**РЕЛИГИОЗНЫЙ КОНТРОЛЬ И РЕПРЕССИИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ В  
СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (1920–1930-е годы)**

*Аминов Рахматжон Искандар угли*

*Нукусский филиал Узбекского государственного университета физической культуры и спорта*

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются системные процессы религиозного контроля и репрессивной политики, проводимой советской властью в Каракалпакстане в 1920–1930-е годы. Начиная с мер, осуществлявшихся под лозунгами «просвещения» и «антирелигиозной кампании», данная политика к 1930-м годам переросла в полномасштабные репрессии. На основе научных источников анализируются процессы уничтожения религиозных институтов, преследования и



уничтожения духовенства, запрета традиционных обрядов, а также разрушения всей духовной сферы общества. Показано, каким образом жёсткие директивы, принятые центральной властью, реализовывались в условиях местной культурной и социальной среды. Цель исследования — рассмотреть эту трагическую страницу истории в её историческом контексте и определить её глубокое влияние на религиозную идентичность и социальную память общества Каракалпакстана.

**Ключевые слова:** советский период, Каракалпакстан, религиозная политика, религиозные репрессии, духовенство, медресе и мечети, традиционные обряды, духовность, коллективизация, культурное наследие, идеологический контроль.

1920-yillarning boshlarida, yangi tashkil etilgan Sovet hokimiyati Markaziy Osiyoning chekka hududi bo'lgan Qoraqalpog'istonda o'z ideologik ta'sirini mustahkamlash uchun keng qamrovli siyosatni amalga oshira boshladi. Diniy amaliyotlar va institutlar yangi tartibning asosiy raqibi sifatida belgilandi. Dastlab, kompaniya "fan" va "ma'rifat" shiorlari ostida olib borildi. Maktablarda diniy ta'lim qat'iy an taqiqlanib, uning o'rniga ateistik targ'ibot kuchaytirildi. Masjid va madrasalar faoliyati nazorat ostiga olindi, ko'plari yopildi yoki omborxonaga, klub yoki ma'muriy binolar sifatida foydalanish uchun musodara qilindi.

1920-yillarning o'rtalariga kelib, bosim yanada shafqatsiz tus oldi. Ruhoniyalar va diniy yetakchilar "xalq dushmani" yoki "kontrevolyutsioner" sifatida qoralana boshladi. Ko'plab qozilar, imomlar va mullalar hibsga olindi, sudlangan holda mehnat lagerlariga surgun qilindi yoki o'lim jazosiga yuborildi. An'anaviy diniy marosimlar, jumladan, namoz-o'qish va dafn marosimlari ham jamoatchilik nazorati ostiga olindi. Buning ustiga, ayollar niqobini yechish kabi "ma'rifatli" kompaniyalar mahalliy aholining chuqur diniy e'tiqodlari bilan to'qnash kelardi, norozilik va noroziliklarni keltirib chiqardi.

1930-yillarga kirgach, diniy qatag'on stalincha "kollektivlashtirish" va "sinfsiz jamiyat" barpo etish dasturi bilan uyg'unlashib ketdi. Diniy e'tiqod "kulak" (boyd) mentalitetining bir ko'rinishi deb e'lon qilindi. Qoraqalpog'istonning chorva mollari bilan ko'chmanchi hayot kechiruvchi jamoalari, ularning hayoti Islom an'analari bilan chuqur o'ralgan edi, maxsus nogironlikka uchradi. Ularning ibodatxonalari vayron qilindi, diniy kitoblar yoqib yuborildi, oilaviy dafn joylari hurmatsizlantirildi.

Bu davr nafaqat diniy institutlarni yo'q qilish, balki butun madaniy va ma'naviy makonni qayta qurishga qaratilgan edi. Natijada, asrlar davomida shakllangan an'analar uzilishga uchradi, diniy amaliyotlar yashirincha va oilaviy doirada davom etdi. Bu qatag'onlar Qoraqalpog'iston jamiyatining ijtimoiy to'qimasida chuqur chandiqlik qoldirdi, bu esa diniy o'ziga xoslikni ifodalashning murakkab merosini keyingi avlodlar uchun qoldirdi.

Sotsializm davrida dinga qarshi olib borilgan kurash, diniy e'tiqodlarga cheklovlar qo'yilishi, diniy maskanlarning yopilishi va diniy arboblarga nisbatan qilingan qatag'onlar - bularning barchasi xalqimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sovet hukumatining diniy siyosatini o'rgangan M. Rametullayev "bugungi kunda din sohasidagi masalalarni bilish va tushunish uchun, aynan sovet davridagi vaziyatni o'rganish orqaligina erishish mumkin"[6] - deb fikr bildirgan bo'lsa, Qoraqalpog'istondagi davriy matbuot tarixini o'rgangan olim S. Nurjanovning fikricha, "Sovet hukumatining dinga qarshi kurashi dinning jamiyatda mafkura va odamlarning kundalik turmushi bilan fikr-mulohazasini shakllantiruvchi me'yorlar to'plami sifatidagi xizmatiga qarshi yo'naltirilgan edi. Davriy matbuotdagi dinga qarshi amaliyot mazmuniga ko'ra bu kurashning ijtimoiy ongini egallash, yagona mafkurani qaror toptirish va shu asosda mutlaqo yangi inson tipi - "homo sovietus"ni tarbiyalash uchun amalga oshirilganligini ko'rsatadi"[5]. Mustaqillik yillarida qoraqalpoq matbuoti bu masalalarni ochiq-oydin ko'tarib, sovet davridagi diniy siyosatga tanqidiy baho berishga intildi.



Bu maqolada mustaqillikdan keyingi davriy matbuotda Qoraqalpog'istonda sovet hukumatining diniy siyosatining bayon etilishi tahlil qilinadi. Sovet davridagi diniy siyosatning qoraqalpoq jamiyatidagi ma'naviy-madaniy hayotiga ta'siri, uning bugungi kundagi oqibatlari va mustaqillik yillaridagi matbuot materiallarida o'z aksini topishi ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi - qoraqalpoq matbuotining diniy mavzularni yoritishdagi o'ziga xosliklarini aniqlash, sovet davridagi diniy siyosatga oid e'lon qilingan materiallarni tahlil qilishdagi tanqidiy qarashlarni ko'rsatish va diniy yo'nalishdagi ma'rifiy ishlarga berilgan ahamiyatni baholashdan iborat.

Mustaqillik davridagi qoraqalpoq matbuotida Sovet hukumatining diniy siyosatining bayoni tahlil qilingan maqolalarning natijalari, qoraqalpoq xalqining diniy dunyoqarashining shakllanishiga Sovet davrida olib borilgan diniy siyosatning ta'siri chuqur va ko'p qirrali bo'lganligini ko'rsatadi. Matbuotda e'lon qilingan materiallar, Sovet hukumatining dinga qarshi yuritgan siyosatining qoraqalpoq jamiyatida diniy institutlarning ahamiyatini pasaytirishga, diniy ta'limni cheklashga va diniy urf-odatlarini yo'q qilishga qaratilganini isbotlaydi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillaridagi matbuot sahifalarida Sovet davridagi diniy siyosatning oqibatlariga baho berishda turli yondashuvlar mavjudligi ham aniqlandi. Ayrim maqolalarda diniy siyosatning xalq ma'naviyatiga yetkazgan zarari tanqid qilinsa, boshqa maqolalarda sovet davridagi diniy ma'rifatning progressiv roli ta'kidlanadi.

Tahlil jarayonida, mustaqillik davridagi qoraqalpoq matbuotida Sovet hukumatining diniy siyosatining bayoni, tarixiy adolatni tiklashga, o'tgan avlodlarning ma'naviy merosini o'rganishga va diniy bag'rikenglik g'oyalari tarqatishga qaratilganligi aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida jamiyat hayotida oshkorlik va demokratiyaning e'lon qilinishi bilan o'tmishning ahamiyatini tushunishga qiziqish ortdi. "Erkin Qoraqalpog'iston" gazetasining 1991-yili No242 sonida Tursinboy Abdimuratovning maqolasi e'lon qilindi va unda Stalin qatag'onidan boshqa yurtga qochib ketgan Nurseyit oxun avlodlarining keyingi taqdiri tasvirlanadi: "Qoraqalpog'istonlik urush va mehnat veterani Sadirniyoz Muzapparov o'sha davrda gazetada bosilgan suratlarni ko'rib, tirik g'oyib bo'lgan akalari haqidagi maqolani o'qiydi. Maqola "Sovet Qoraqalpog'istoni" gazetasida 1991-yili 4-iyun kuni e'lon qilingan Esnazar Usenovning "Bir hovuch tuproq" nomli maqolasi edi. Keyinroq, 9-avgustda Aytmurat Berdiyevning "Suriyadan kelgan bir xatning izi..." degan ma'lumotnoma maqolasi chiqadi. Ikkala maqola ham jamoatchilikda katta g'alayon solib, ko'p odamlar noma'lum yo'qolib ketgan qarindoshlarini izlashga boshladi.

Sadirniyoz Muzapparov maqolalardagi chalkashliklarni tuzatib, Nurseyit oxunning farzandlari haqida aniqlik kiritadi. U akalari Yahyo va Bekbosinning ta'qibga uchrab, 1934-1935 yillari eldan qochib ketganini aytadi. Ular Turkmaniston, Eron, Iroq orqali Turkiyaga yetib boradi, keyinchalik Suriyaga ko'chib o'tib, o'sha yerda yashab vafot etadi. Sadirniyozning qarindoshi Qaypan Sharipov ularni Suriyada ikki marta ko'rib kelgan. Akalarining bolalari va avlodlari Suriyada yashayapti. Sadirniyoz bu holatni qatag'onning kasofati deb baholaydi"[3].

Tarixchi O'ngarboy Yusupov "Arxiv xazinalaridan" nomli maqolasida "1926-yili Chimboyning No7 qishlog'idan Piraj xo'ja Makkaga safar qilib, 1929-yili qishlog'iga qaytib keldi. Biroq, xuddi o'sha vaqtlari OGPU Kegeyli va Chimboyda kontrrevolyutsion tashkilotlarni qidirib, shubhali odamlarni, diniy odamlarni va boy bolalarini qamoqqa olayotgan edi. Piraj xo'janing haj safari haqidagi hikoyalari ayg'oqchilarning e'tiborini tortdi. Oqibatda, Eskeldiyev Piraj xo'ja (laqabi Iranxo'ja) aybdor deb topilib, 1929-yil 7-dekabrda uchlikning qarori bilan otuvga hukm qilindi va mol-mulki musodara qilindi. Makkadan kelgandan so'ng, u jazolandi" deb yozgan[2].

O'ngarboy Yusupovning yana bir maqolasida 1919-1930-yillari Taxtako'pir, Kegeyli va Chimboy tumanlarida OGPU tomonidan qatag'oniga uchragan shaxslar haqida ma'lumot berilgan.



Qatag'onga uchraganlar orasida diniy xizmatchilar (eshonlar, oxunlar), boylar, bo'lislar va aksilinqilobiy harakatlarga aloqador kishilar ro'yxati berilgan. Ular aksilinqilobda qatnashgani, bolsheviklarga qarshi targ'ibot olib borgani, Junaidxonni maqtangani uchun ayblangan. Qatag'on turlariga otish, surgun, mol-mulk xatlash va oila a'zolarini ko'chirish kiradi. Ro'yxatda qatag'onga uchraganlarning ism-shariflari, tug'ilgan joylari, yoshlari va ayblov dalillari keltirilgan. Ro'yxatdagi 96 kishidan 62 nafari diniy shaxs ekanligi aniqlandi. Bu diniy ulamolar: eshonlar, oxunlar, masjidlik mullalar va ularning so'fiylari edi. Ayrim hollarda sudlanganlarning oila a'zolari ham qatag'onga uchragan.

Tuman gazetalarida ham shu mavzuda maqolalar e'lon qilindi. Masalan, "Chimboy ovozi" gazetasining 1996-yil 19-dekabrda sonida jurnalist Miyassar Kabulovning "Qozi Mavlik-odil qozi bo'lgan" nomli maqolasi e'lon qilindi[4]. Bu maqola publitsistik bo'lsa-da, Qozi Mavlikning diniy odam sifatida sovet davridagi diniy siyosatning oqibatlarini boshidan kechirganini va Stalin jazolash yillarida akalarining yaqin yordami bilan quvg'indan qochib, qo'shni Turkmanistonga borib yashirib, jonini saqlab qolganini tasvirlaydi. R.Shamsutdinov va U.Bekmuhammadning "Qipchoqlik qatag'on davri jabrdiydalari" maqolasi, 2015-yilda Amudaryo tumanining "Taraqqiyot ko'zgusi" gazetasida (№32-33 (7220)) chop etildi[7]. Ushbu maqolada tumandagi qatag'on qurbonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, diniy xizmatchilardan eshonlar, oxunlar, so'fiylar, qozilar, raislar, muftiylar va mullalarning nomlari tilga olingan.

Albatta, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijtimoiy-huquqiy nashrlarida qatag'onga uchraganlar va ularning nomlarini oqlashga bag'ishlangan materiallar chop etildi. Bu borada Sh.Babashevning qatag'on qurbonlari bo'lgan diniy arboblarning haqidagi bir necha maqolalarini tilga olish lozim[1]. Xususan, sovet davrida asossiz ayblangan qozilar haqidagi maqolalari alohida e'tiborga loyiq.

Bu qatag'onlarning sabablari Sovet hukumatining dinga qarshi siyosati va boylarni, bo'lislarni va Sovet hukumatiga qarshi chiqqanlarni yo'q qilishga qaratilgan qadami edi.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davridagi qoraqalpoq matbuoti sovet hukumatining diniy siyosatini yoritishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular sovet davrida dinga qarshi olib borilgan qatag'on siyosatning oqibatlarini ochib ko'rsatdi, diniy e'tiqodlarning qadr-qimmatini tiklashga xizmat qildi va ma'naviy yangilanish jarayoniga o'z hissasini qo'shdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бабашев Ш. Жазықсыз жазаланған қазылар / Жипек жолы. – Нөкис, 3.12.2005. - №51. – Б. 8.
2. Еркин Қарақалпақстан 13. 03. 1992. №49. S 2
3. Еркин Қарақалпақстан 19. 12. 1991. №242. 3(2)
4. Қабулова М. Қазы Мәўлик-әдил қазы болған. "Шымбай хаўазы", 19.12.1996. №51. 3-бет.
5. Нуржанов С. К вопросу антирелигиозной пропаганды на страницах печати Каракалпакстана 1930-х годов // Интернаука, №42(359). Часть 1. Москва, 2024. 19-23 б. Эл.версия. <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/359>
6. Раматуллаев М.А. - Совет хәкимиятының Қарақалпақстандағы диний сиясатының изертленіуі// Вестник ККО АН РУз, №2, 2021. С.102-105.
7. Шамсутдинов Р., Бекмухаммад У. Қипчоқлик қатағон даври жабрдийдалари, Таррақиёт кўзгуси газетаси №32-33 (7220), 29.08. 2015. – 2 б.